

“QISSAYI SAYFULMULK” ASARINING YARATILISH TARIXI

Yuldasheva Saida Rahmonqul qizi

Guliston davlat universiteti 2-bosqich magistranti.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiy manbalaridan biri hisonlangan Majlisiy qalamiga mansub “Qissayi sayfulmulk” asarining adabiy-badiiy ahamiyati tadqiq etilgan bo‘lib, unda o‘zbek mumtoz ijodkorlaridan biri hisoblangan Majlisiyning hayot yo‘li, ijodiy faoliyati va o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘zni o‘rganildi. Shoir qalamiga mansub bo‘lgaan “Qissayi Sayfulmulk” dostonining yozilish tarixi, mumtoz adabiyotimiz tadqiqotchilarini tomonidan o‘rganilganlik darajasi o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar:“Qissayi Sayfulmulk”, musulmon xalqi, urdu tili, fotih, Eron kurdilari, jon qushi, syujet va hakazo.

“Qissayi Sayfulmulk” asarining voqealar rivoji Sharq musulmon adabiyotidagi sayyor syujetga asoslangan bo‘lib, ushbu asarning dastlabki yozma namunasi arab adabiyotidgi “Ming bir kecha”ga borib taqaladi. Shahrizodning sultonga hikoya qilib beruvchi qissalari bir necha boblar bayonida uchrab, unda asosan, Sayfulmulkning jasoratlari, qiziqarli sarguzashtlari tarannum etiladi. Shahzoda Sayfulmulk haqidagi doston va qissalar Sharq musulmon xalqlari, jumladan, arab fors, turk va urdu tillarida mavjudligini inobatga olib, bu asarni “Shahzoda Sayfulmulk” turkum dostonlari deb atash mumkin bo‘ladi. Majlisiyning “Qissayi Sayfulmulk” asari ushbu slsilaning turkiy, xususan, o‘zbek adabiyotidagi bir namunasidir. “Qissasi Sayfulmuk”ning shu nomdagagi bir qancha forsiy nusxalari mavjud bo‘lsada, Muhammad Sa’duddin Buxoriyning “Jome’ ul-hikoyot” asarida uning nasriy shakli uchraydi.

Shuningdek, “Sayfulmulk va Badiuljamol” turkum dostonlari yana urdu adabiyotida ham keng tarqalgan silsila dostonlardan hisoblanadi. Ularning bu taqlid keng tarqalishiga sabab, musulmon arab-fors-turk fotihlarining Hind diyoriga kirib borishi natijasida imprik muhitning vujudga kelishi bilan izohlanadi. Musulmon adabiyotidai g‘oyalar va unsurlar umumlashib, yangi hind-udu musulmon adabiyotining shaklanishga asos bo‘lib xizmat qildi. Shunday adabiy jarayonning bir mahsuli o‘laroq urdu shoirlari ijodida yuqoridagi doston mavzusidagi asarlar paydo bo‘ldi. Mashhur panjob shoiri janob Mian Muhammad Baxsh Sohib yozgan Sayf al-Muluk hikoyasi uyushgan hikoya-qissadir Unda shahzoda Sayfulmulk va Sayfuljamol haqidagi ishqiy munosabatlar doirasidagi sarguzashtlar hikoya qilinadi. Ushbu

voqealar Sayfulmulk va Sayfuljamol haqidagi voqealatr tizginida turli hikoyatlar, tanbehtar jamiyatdagi muammolarning muolajasi keltirilib o'tilgan.

Shuningdek, bu mavzuda kurd adabiyotida ham alohida manzuma bo'lib Siyohpo'sh ismlik kurd shoiri qalamiga mansubdir. Siyehposh yoki Siyehposh — 18—19-asrlarda yashagan mumtoz kurd shoiri. Uning hayoti haqida kam ma'lumot mavjud. Ba'zilar uni Urmiyada tug'ilgan, ba'zilari esa Turkiyaning Kurdistonida tug'ilgan deb hisoblaydi. Uning she'rlaridan Usmonlilarga hijrat qilgan Eron kurdlaridan biri bo'lganligi ma'lum bo'ladi. Uning qabri Turkiyaning Farkin shahrida.

Uning she'rlari kirmanji lahjasida. Uning eng mashhur asari Manzoma Bazmi-Razmi Sayf al-Maluk va Badi al-Jamoldir.

Siyoposhning mashhur asari Sayf al-Maluk va Badi al-Jamolning "Bazmi-Razmiy" she'ri bo'lib, bu she'rda ikkisining ishq qissasi tasvirlangan. Siyoposh "Labla masnaviy"da bir qancha g'azallar yozganligi uning uslubini avvalgi shoirlaridan ajratib turadi.¹

Majlisiyning bu ijod mahsuli mazkur mavzu an'anasi dagi o'ziga xos bosqich bo'ldi. Birinchidan, adib o'zigacha yaratilgan ishqiy sarguzasht haqidagi qissalarni puxta o'rgandi, umumlashtirdi, rivojlantirdi. Ikkinchidan, salaflari yo'l qo'ygan kamchiliklarni tuzatdi. Uchinchidan, oldinlari sarguzashtlar haqidagi qissalar arab va fors tillarida yozilgan bo'lsa, Majlisiyning turkiy tilda yozishga jazm qildi.

Unda XIII asr oxiri - XIV asr boshlaridagi turkiy adabiyotning bir qator o'ziga xos xususiyatlari juda yorqin namoyon bo'lgan. Majlisiyning "Qissayi Sayfulmulk" asari debochasida muallif ushbu asardan ko'zlagan maqsadi haqida qisqacha bayon etib beradi:

Vale ul nusxa erdi forsiy nasr,
Erursada hikoyar so'zi ham asr.
Qilibdur Majlisiy bu so'zni pardoz,
O'qusang qilur jon qushi parvoz.

Mazkur misralardan Majlisiyning Sayfulmulk haqidagi forsiy manbalarga murojaat qilgani va ushnu manbalardan o'z asarida xamirturush vazifasida foydalangan ochiqlanadi. Shuningdek, Majlisiy bu o'rinda Muhammad Afviyning "Jome' ul-hikoyot" asaridan fiydalangan bo'lishi mumkin. Chunki misrada forsiy tildagi Sayfulmulk qissasining nasariantidan foydalanganligiga ishora qilmoqda.

Halollikka, o'z mehnati bilan halol kun ko'rishga, boshqalarga zulm qilmaslikka undash Majlisiyning hikoyalaring asosiy maqsadidir. O'zbek ajoyib nazmiyida ilk marotaba ishqiy dialoglar Majlisiy tomonidan keng tarzda qo'llangan. Ana shu

¹ <https://fa.wikipedia.org/wiki/%D8%B3%DB%8C%D8%A7%D9%87%D9%BE%D9%88%D8%B4>

dialoglar vositasida asosiy g‘oyaviy maqsad yorqin va ta’sirchan ifodalangan va poetik ifodalar ham aynan diologlar shaklida kelganda o‘quvchiga osonva tushunilishi oson bo‘lgan.

“Qissai Sayfulmulk” – turkiy ajoyib nazmiyning eng qadimiy namunalaridan biridir. Unda XVI asr oxiri – XVII asr boshlaridagi turkiy adabiyotning bir qator o‘ziga xos xususiyatlari juda yorqin namoyon bo‘lgan. Sayfulmulk haqidagi qissalar Majlisiyning olam va odam haqidagi qarashlarini badiiy jihatdan ifodalash uchun vosita bo‘lgan. Qissalar asosini tarixiy-ilohiy voqealar tashkil etadi. Ular o‘z ildizlari bilan Qur’on va hadislarga, insoniyatning yaratilishi va rivojlanish tarixiga, xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Ammo bularning ko‘philigi, birinchi navbatda, Majlisiy badiiy tafakkuri yordamida qayta idrok etiladi, badiiy talqinini topadi. Mavzu doirasiga ko‘ra asardagi qissalar juda rang-barang. Olamdagi butun mavjudod egasi Olloho ni ulug‘lash, Shahzoda Sayfulmul hayotiga doir lavhalarni eslash, ota-onas farzand munosabatlari, sevgi va sadoqat, vatan va vatanparvarlik, erk vaadolat, do‘stlik va hamjihatlik, urush va tinchlik kabi mavzular shular jumlasidandir. Bular asardagi yetmish ikki qissada o‘z ifodasini topgan. Qissalarning ko‘pi qahramon haqidagi muayyan xabar bilan boshlanadi, so‘ng sheriy madh, keyin asosiy voqealar bayoni keladi. Bazi qissalar ichida yana mustaqil hikoya, rivoyat va naqllar ham bor. Masalan, Shoh Bahorom qissasida bir necha hikoya, latifa, bayt, g‘azal va boshqa janr namunalari uchraydi. Ammo ular asarda olg‘a surilgan asosiy g‘oyaviy-badiiy maqsad bilan yaxlitlikni tashkil etadi.

Halollik, o‘z mehnati bilan halol kun ko‘rishga, boshqalarga zulm qilmaslikka undash Majlisiyning g asosiy maqsadidir.

Asarda keltirilgan she’riy hikoyalarni poetik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, ularda xalq og‘zaki ijodining tasiri ham yorqin seziladi. Xususan, latifa janriga xos belgilar hikoyaga ko‘chibo‘tgan. Suhbatning diolog asosida olib borilishi, soddalik, donishmandlik, topqirlik, hozirjavoblik fazilatlarining ustuvorligi, ifodalarning qisqa, aniq, lo‘ndaligi, og‘zaki ijoddan tasirlanish natijasidir.

Unda Sharq falsafasi bilan qadimiy milliy qadriyatlarimiz uyg‘unlashib ketgan.

Qadimiy turkiy tilni o‘zida ifoda etgan bebaho durdona ikki kitobdan iboratdir. Sobiq sovetlar davrida hayoti va ijodi o‘rganilishi taqiqlangan allomaning ushbu asari Mustaqillik sharofati va tariximizga munosabat o‘zgarganligi tufayli darsliklardan o‘rin oldi. Masalan, 9-sinf adabiyoti majmuasiga Nosiruddin Burhonuddin Majlisiyning mashhur asarlaridan namunalar kiritilgani buning isbotidir. “Qisasi Majlisiy” asari o‘zbek ajoyib nazmiyiy adabiyotining birinchi yirik namunasidir.

Majlisiyning “Qisasi Sayfulmulk” asari Mustaqilligimiz sharofati va bir guruh olimlarimizning sa’y-harakati bilan kitob javonlarimizdan o‘rin oldi. Asarning tili juda murakkab bo‘lib, bugungi kitobxonning tushinishi juda qiyin.. Undagi insonlarni bir-

birlariga jabr – zulm qilmay, nohaq qon to‘kmay, harom – xarish ishlarga berilmay, sharm-hayoni e’zozlab yashashga undovchi o‘g‘it va hikmatlari navro‘zi olam kabi bugungi kunda ham o‘z mohiyatini yo‘qotgan emas. Asarda e’tiqod va iymonga sodiqlik, pok axloqning hirsu hasad, qonxo‘rlik, badnafslik ustidan g‘alabasi tasvirlanadi. Qadimiy turkiy so‘z san’atining go‘zal va g‘aroyib obidasida shahzoda Sayfulmulk hayoti Sharqning donishmandligi ila go‘zal afsona va rivoyatlar orqali aks etgan.

Vaqt o‘tishi, turli ijtimoiy-siyosiy voqealarning sodir bo‘lishi natijasida turkiydagи ba’zi so‘zlar o‘z umrini yashab bo‘lgan va iste’moldan chiqib ketgan. Masalan: ud, uy-sigir; to‘ra – qonun-qoida; uv – uy, joy kabi so‘zlar. Shu bilan bir qatorda hayot sinovlariga bardosh bergen va bugungi kunda ham tilimizda faol qo‘llanilayotgan juda ko‘p so‘zlar Majlisiyoyzib qoldirgan bebaho durdonaning har bir satrida uchraydi. Masalan, *tishi-xotin* so‘zi respublikamizdagi ba’zi viloyatlarning shevasida hali ham ishlatiladi. *Tangmoq-o‘ramoq; navmid-umidsiz, noumid; iya-ega, sohib; xarbuz-tarvuz; chanoq-yog‘och idish, tovoq; og‘-to‘r, tuzoq; daf(dap)-doira; sichak (secha) – chumchuk; ovuch-kaft, hovuch; kirpitch – g‘isht; ashoq-past; avloyaxshiroq, afzalroq; kezik(gazik)-navbat; qo‘ndog‘lab-yo‘rgaklab; yurtug‘ (yirtiq kiyim – kechak)-teshik; o‘kcha-tovon; amurd (almurd)-nok; buz-muz.*

Xorazm shevasida bu so‘zlar bugun ham aynan shu ma’noda ishlatiladi. Ko‘kilamoq-rashk qilmok; yozilamoq-yozilmoq; bag‘irsoq-rahmdil, oq ko‘ngil; isurmoq-mast, kayf. Bu so‘zlar ham hozir ko‘pgina shevalarda ishlatiladi. Shuningdek, o‘z mazmun – mohiyatidan biroz uzoqlashgan so‘zlar ham mavjud. “Bodiya” so‘zi asarda-cho‘l, dasht, sahro, biyobon ma’nosida ishlatilgan. Xorazmda palov yeydigan maxsus idishni *bodiya* deb yuritishadi. Asarda “*arig*” so‘zi pokiza, sof ma’nosida ishlatilgan. Xorazmda bugun bu so‘z ozg‘in, nimjon ma’nosida ishlatiladi. Asarda “*yobon*” so‘zi cho‘l biyobon ma’nosida ishlatilgan. Xorazmchada bugun u yovon deb ishlatiladi. Cho‘l, biyobondan tashqari qishloq ma’nosini ham anglatadi.

Ajdodlarimizning ilm sohasidagi ildizlari chuqur ekanligini anglatadigan so‘zlar ham mavjud. *Aqron-sayyora; baqir-mis; Saqit – Zuhra, Venera; tuch-bronza.*

“Qisasi Rabg‘uziy”ning tabdili haqidagi mulohazalarni umumlashtirib shunday xulosa chiqarish mumkin.

- “Qissayi Sayfulmulk” asarining yaratilish tarixi” haqida ilmiy jamoatchiligidiz o‘rtasida faqat ushbu asarning o‘zidagina muallif tomonidan aytilgan ayrim ishoralar borligi u haqida atroflicha tadqiqot olib borigan holda, o‘z davriga tegishli bo‘lgan manbalarga murojaat etilishi lozimligini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra ushbu asarning ayni kunda mukammal shakliga ehtiyoj juda kuchlidir.

- Asar mustaqillik yillarida biror marta nashr etilmadi. Bil’aks, sobiq sho‘rolar zamonida Natan mallayev tomonidan tayyorlangan nashri qisqartirishlar bilan kemtik holatda nashr etilgan bo‘lib, bu nashr ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

2. A.Qutbiddin. Uzoqdan olisga. T.: 2006, 294-b.
3. T.Nizom. Bahoriy maysalar. Saylanma. I jild. T. 2007. 247-b.
4. T.Nizom. Avji yoz. 2- jild. T.: 2007.
5. I.Otamurod. Tag‘azzul. T.: 2008. 146-b.
6. I.Otamurod. Muqaddar. T.: 2012, 143-b.
7. E.Shukur. Hamal ayvoni. T: Sharq, 2002. 231-bet.
8. Muhammad Ali. Saylanma. T.: 1997. 262-b.
9. Takomil mashaqqatlari. Ulug‘bek Hamdam bilan suhbat. “Tafakkur”. 2017. 3-son. 22-27-b.

INTERNET MANBALARI

- www.kh-davron.uz
www.kutubxona.com
www.philosophy.ru
www.ziyouz.com